



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№8

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 66 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-avgustda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Smart-logistika texnologiyalarini joriy etish orqali oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish tizimini optimallashtirish (Toshkent viloyati misolida).....	14
Mavlanov Sobirjon Pardabayevich	
Tijorat banklarida korporativ boshqaruvning xalqaro tamoyillari asosida boshqaruv sifatini oshirish	20
Sattarov Umirzoq	
Современные банковские продукты	24
Хужамуратов Аббос Мардонович	
Amerika qo'shma shtatlarining ijtimoiy himoya tizimi.....	29
Abdullayeva Sayyora Aleksandrovna	
Совершенствование рынка услуг высшего образования как фактор повышения занятости населения в условиях цифровой экономики.....	33
Ибрагимов Тимур Ибодуллаевич, Асланова Дилбар Хасановна	
Iqtisodiy fanlarni o'qitishda interaktiv metodlarning qo'llanilishi va ularning samaradorligi.....	39
Kabulov Baxram Kuzibaevich	
Korxonalarda raqobat razvedkasi tizimlarini rivojlantirishda innovatsion raqamli texnologiyalarining o'rni.....	45
Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li	
O'zbekiston banklarida sun'iy intellekt foydalanish samaradorligini oshirish.....	51
Kamolov Sardorbek Davlatjon o'g'li	
Agrar korxonalar xo'jalik faoliyatida risklarni boshqarish bo'yicha samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishning metodologik asoslari.....	59
Baymirzaev Dilmurod Nematovich	



AGRAR KORXONALAR XO'JALIK FAOLIYATIDA RISKLARNI BOSHQARISH BO'YICHA SAMARALI BOSHQARUV QARORLARINI QABUL QILISHNING METODOLOGIK ASOSLARI



Baymirzaev Dilmurod Nematovich

Namangan davlat universiteti
"Menejment" kafedrasi mudiri, i.f.f.d. (PhD)
ORCID: 0000-0002-6707-5109

Annotatsiya: Ushbu maqolada agrar korxonalarda risklarni boshqarish bo'yicha samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishning ilmiy-uslubiy asoslari tahlil qilingan. Qishloq xo'jaligi sohasi uchun xos bo'lgan beqarorlik va noaniqlik sharoitida, ISO 31000:2018 standarti hamda OECD metodologiyasiga asoslangan yondashuvlar taklif etilgan. Maqolada risklarni identifikatsiya qilish, baholash va kamaytirishda raqamli texnologiyalar, ehtimollik tahlili usullari hamda innovatsion boshqaruv vositalarining ahamiyati asoslab berilgan. Shuningdek, sug'urta, diversifikatsiya, axborot xizmatlari va fermer ishtirokini o'z ichiga olgan kompleks boshqaruv tizimi orqali agrar subyektlarning barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: agrar risklar, boshqaruv qarorlari, ISO 31000, OECD metodologiyasi, qishloq xo'jaligi, raqamli texnologiyalar, sug'urta, diversifikatsiya, ehtimoliy tahlil, stejkxolder yondashuvi.

Abstract: This article analyzes the scientific and methodological foundations for making effective management decisions in agricultural risk management. In the context of instability and uncertainty typical of the agricultural sector, the paper proposes approaches based on the ISO 31000:2018 standard and the OECD methodology. The importance of digital technologies, probabilistic analysis methods, and innovative management tools in identifying, assessing, and mitigating risks is substantiated. The paper also provides practical recommendations for ensuring the sustainability and competitiveness of agricultural enterprises through an integrated management system that includes insurance, diversification, information services, and farmer participation.

Key words: agricultural risks, management decisions, ISO 31000, OECD methodology, agriculture, digital technologies, insurance, diversification, probabilistic analysis, stakeholder approach.

Аннотация: В статье анализируются научно-методические основы принятия эффективных управленческих решений по управлению рисками на сельскохозяйственных предприятиях. В условиях нестабильности и неопределённости, присущих аграрному сектору, предлагаются подходы, основанные на стандарте ISO 31000:2018 и методологии ОЭСР. Обосновывается значимость цифровых технологий, методов вероятностного анализа и инновационных инструментов управления при идентификации, оценке и снижении рисков. Также представлены практические рекомендации по обеспечению устойчивости и конкурентоспособности сельскохозяйственных предприятий посредством комплексной системы управления, охватывающей страхование, диверсификацию, информационное обеспечение и участие фермеров.

Ключевые слова: сельскохозяйственные риски, управленческие решения, ISO 31000, методология ОЭСР, сельское хозяйство, цифровые технологии, страхование, диверсификация, вероятностный анализ, заинтересованные стороны.



KIRISH

Qishloq xo'jaligi — iqtisodiy jihatdan strategik ahamiyatga ega, tabiiy-iqlim sharoitlariga yuqori darajada bog'liq bo'lgan va noaniqlik omillarining ta'siriga sezuvchan tarmoqlardan biri hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat yuritish iqlim o'zgarishlari, bozor kon'yunkturasidagi keskin siljishlar, resurslar (texnika, moddiy-texnika ta'minoti, malakali ishchi kuchi) yetishmovchiligi, shuningdek siyosiy-huquqiy o'zgarishlar ta'sirida kechadi.

Jahon banki (World Bank, 2021-yil)¹ va BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti — FAO (FAO, 2020-yil)² tomonidan ta'kidlanganidek, agrar faoliyat — murakkab risklar va noaniqliklar sharoitida olib boriladigan sohaga kiradi. Shu sababli, agrar korxonalar muvaffaqiyatli faoliyat yuritishlari uchun risklarni ilmiy, tizimli va raqamli tahlillarga asoslangan qarorlar orqali boshqarish zarur. Bu esa o'z navbatida qishloq xo'jaligi subyektlarining iqtisodiy barqarorligi, samaradorligi va global raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Amerikalik iqtisodchi olim, Chikago iqtisodiy maktabining asoschisi Frenk Xayneman Nayt (Frank Hyneman Knight, 1921-yil) riskni ehtimollik darajasi aniqlanishi mumkin bo'lgan noaniqlik shakli sifatida talqin qiladi. Uning ta'kidlashicha, bunday noaniqlikni aniqlash va baholash orqali samarali boshqaruv imkoniyati yuzaga keladi. Iqtisodiy subyektlar, xususan agrar korxonalar, aynan shunday sharoitda strategik qarorlar qabul qilishga majbur bo'ladilar³.

Shuningdek, amerikalik olim, bir nechta fan sohalari — iqtisodiyot, psixologiya, siyosatshunoslik va informatika rivojiga katta hissa qo'shgan, interdisciplinar yondashuvlari bilan tanilgan Nobel mukofoti sohibi Gerbert Saymon (Herbert Alexander Simon, 1957-yil) o'zining "cheklangan ratsionallik nazariyasi"da insonlar qaror qabul qilish jarayonida to'liq axborotga ega bo'lmashliklarini va ularning kognitiv imkoniyatlari cheklanganligini asoslaydi. Uning nazariyasiga ko'ra, real hayotdagi qarorlar mukammal optimal emas, balki "qoniqarli" (satisficing) yechimlar asosida shakllanadi. Bu yondashuv agrar qarorlarning amaliy realligini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi⁴.

Zamonaviy sharoitlarda agrar faoliyatda samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish ilmiy asoslangan tamoyillar va kompleks yondashuvlarga tayangan holda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Jahon amaliyotida keng qo'llanilayotgan usullar, raqamli texnologiyalar joriy etilishi, shuningdek ko'p kriteriyali tahlil metodlari bu jarayonda alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, kompleks yondashuvda risklarni tahlil qilishda tabiiy-iqlimiy, iqtisodiy, texnologik va ijtimoiy omillar o'zaro bog'liq tizim sifatida qaraladi.

Ushbu yondashuv amerikalik iqtisodchi va biznes-falsafachi R. Edvard Friman (R. Edward Freeman, 1984-yil) tomonidan ishlab chiqilgan "Steykxolder nazariyasi"⁵ hamda mashhur amerikalik biofizik, ekolog va tizim tahlilchisi Donella X. Medouz (Donella H. Meadows, 2008-yil) tomonidan asoslangan "tizimli tahlil" nazariyasiga tayangan holda amalga⁶ oshiriladi.

Agrar korxonalarda risklarni boshqarishda steikxolder yondashuvi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuvga ko'ra, fermer xo'jaliklari nafaqat moliyaviy samaradorlikka, balki jamoa ehtiyojlariga (ijtimoiy risklar), tabiiy resurslardan foydalanishga (ekologik risklar), hamkorlar va ta'minotchilar bilan munosabatlarga (iqtisodiy risklar), hamda davlat siyosati (institutsonal risklar) bilan bog'liq jihatlariga ham e'tibor qaratishlari lozim.

Donella X. Medouzning tizimli yondashuviga muvofiq, agrar faoliyat tabiat, iqtisodiyot, jamiyat va texnologiya o'rtasidagi murakkab o'zaro bog'liqlikni ifodalaydi. Bu yondashuv agrar korxonalarda iqlim va ishlab chiqarishning o'zaro bog'liqligi, suv resurslari muvozanati, resurs sarfini optimallashtirish va qayta aloqa (feedback) munosabatlari orqali agrar siyosat natijalarini baholash imkonini beradi.

Innovatsion yondashuv — raqamli texnologiyalar (AI, IoT, GIS, Blockchain) va zamonaviy tahlil vositalari (Machine Learning, Big Data) asosida qaror qabul qilish jarayonini tezkorlik va aniqlik bilan ta'minlaydi.

1 World Bank. (2021). Harvesting prosperity: Technology and productivity growth in agriculture. The World Bank Group. <https://www.worldbank.org/en/topic/agriculture/publication/harvesting-prosperity>

2 FAO. (2020). The State of Food and Agriculture 2020: Overcoming water challenges in agriculture. Food and Agriculture Organization of the United Nations.

3 Knight, F. H. (1921). Risk, Uncertainty and Profit. Boston: Houghton Mifflin.

4 Simon, H. A. (1957). Administrative Behavior: A Study of Decision-Making Processes in Administrative Organization. New York: Macmillan.

5 Freeman, R. E. (1984). Strategic Management: A Stakeholder Approach. Boston: Pitman.

6 Meadows, D. H. (2008). Thinking in Systems: A Primer. Chelsea Green Publishing.



Ilmiy asoslangan ehtimolli tahlil usullari — riskning yuzaga kelish ehtimoli va ta'sir ko'lamini aniqlashda Monte-Karlo simulyatsiyasi⁷, Bayes tahlili (Bayesian Data Analysis)⁸ va sezuvchanlik tahlili (Sensitivity Analysis)⁹ kabi xalqaro darajada tan olingan metodologiyalardan foydalanadi.

Moslashuvchan (adaptiv) yondashuv — beqarorlik, noaniqlik, murakkablik va ko'p ma'nolilikni (VUCA) o'z ichiga olgan muhitda qarorlarni Scenario Planning (Schoemaker, 1995-yil)¹⁰ va Real-Time Feedback tizimlari asosida qabul qilishni nazarda tutadi. Ushbu yondashuv faol moslashuv nazariyasi (Adaptive Management Theory) va dinamik tizimlar tahliliga (Holling, 1978-yil)¹¹ asoslanadi.

Aniq hisob-kitoblarga tayanuvchi yondashuvda esa qarorlar xarajat-foyda tahlili (Cost-Benefit Analysis, CBA), sof joriy qiymat (Net Present Value, NPV) va investitsiya rentabelligi (Return on Investment, ROI) kabi moliyaviy indikatorlar asosida shakllantiriladi¹².

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Qishloq xo'jaligi korxonasi — o'zaro bog'liq elementlardan tashkil topgan murakkab, dinamik tashkiliy tizim bo'lib, unda qabul qilinadigan qarorlar ko'p omilli va tarmoqlararo tahlilga asoslangan bo'lishi zarur. Qarorlar nafaqat iqtisodiy, balki agrar-biologik resurslar (hosildorlik, genetika, agrotehnika), texnologik infratuzilma (avtomatlashtirilgan uskunalar, raqamli platformalar), ijtimoiy muhit (kadrlar salohiyati, ijtimoiy kapital) va iqlim omillari (suv resurslari, harorat, tabiiy ofatlar) bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. Bunday tizimlarni samarali boshqarish uchun ulardagi qayta aloqa (feedback)¹³ munosabatlari, muvozanat holatlari va dinamik o'zgarishlar¹⁴ chuqur o'rganilishi lozim.


TAHLIL VA NATIJALAR

Qishloq xo'jaligi korxonalarida samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish amaliyotda ilmiy asoslangan metodologiyaga tayanishi zarur. Mazkur metodologiyaning asosiy vazifasi — risklarni aniqlash, tahlil qilish, modellashtirish va ularning salbiy ta'sirini kamaytirishga yo'naltirilgan tizimli yondashuvni shakllantirishdir. Qaror qabul qilishda dalillarga asoslangan boshqaruv (Evidence-Based Management), risklarni hisobga olgan holda qaror qabul qilish (Risk-Informed Decision-Making) va real vaqt rejimidagi monitoring (Real-Time Monitoring) uslublari keng tatbiq etiladi. Ushbu yondashuvlar risk tahlilining zamonaviy modellari¹⁵ hamda ISO 31000:2018 xalqaro standartlariga¹⁶ muvofiq holda shakllantiriladi. Bu tizim agrar muhitda yuzaga keladigan noaniqliklar va o'zgaruvchan sharoitlarda moslashuvchan, aniq va samarali qarorlarni ishlab chiqishga imkon yaratadi.

Agrar sohada qabul qilinadigan qarorlar doimo VUCA muhit — ya'ni beqarorlik (Volatility), noaniqlik (Uncertainty), murakkablik (Complexity) va ko'p ma'nolilik (Ambiguity) sharoitida shakllanadi. Shu bois, risklarni boshqarishga oid qarorlarni ishlab chiqishda kompleks metodologik yondashuv zarur. Bu metodologiya hozirgi kunda xalqaro standartlar (ISO 31000:2018), Norvegiyaning Stavanger universiteti professori, risk tahlili va noaniqliklarni boshqarish sohasida yetakchi olim Tere Aven (Terje Aven, 2015-yil) tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvlar¹⁷, shuningdek Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan ishlab chiqilgan qishloq xo'jaligidagi risklar (iqlim, bozor o'zgarishlari, epidemiyalar va boshqalar)ni boshqarish bo'yicha strategik tavsiyalarga asoslanadi¹⁸.

Qaror qabul qilish jarayonida chuqur tahlil, ehtimollik modellashtirish, optimal variantni tanlash va ustuvor yo'nalishlarni aniqlash muhim elementlar sifatida qoraladi (1-rasm).

- 7 Metropolis, N., & Ulam, S. (1949). The Monte Carlo Method. *Journal of the American Statistical Association*, 44(247), 335–341.
- 8 Gelman, A., Carlin, J. B., Stern, H. S., Dunson, D. B., Vehtari, A., & Rubin, D. B. (2013). *Bayesian Data Analysis* (3rd ed.). CRC Press.
- 9 Saltelli, A., Ratto, M., Andres, T., Campolongo, F., Cariboni, J., Gatelli, D., ... & Tarantola, S. (2008). *Global Sensitivity Analysis: The Primer*. Wiley.
- 10 Schoemaker, P. J. H. (1995). Scenario Planning: A Tool for Strategic Thinking. *Sloan Management Review*, 36(2), 25–40.
- 11 Holling, C. S. (1978). *Adaptive Environmental Assessment and Management*. John Wiley & Sons.
- 12 Boardman, A. E., Greenberg, D. H., Vining, A. R., & Weimer, D. L. (2018). *Cost-Benefit Analysis: Concepts and Practice* (5th ed.). Cambridge University Press.
- 13 Meadows, D. H. (2008). *Thinking in Systems: A Primer*. Chelsea Green Publishing.
- 14 Checkland, P. (1999). *Systems Thinking, Systems Practice*. Wiley.
- 15 Vose, D. (2008). *Risk Analysis: A Quantitative Guide* (3rd ed.). John Wiley & Sons.; Aven, T. (2015). *Risk Analysis* (2nd ed.). Wiley.
- 16 ISO 31000:2018. *Risk Management – Guidelines*. International Organization for Standardization.
- 17 Aven, T. (2015). *Risk Analysis* (2nd ed.). Wiley.
- 18 OECD. (2021). *Managing Risk in Agriculture: Policy Lessons and Future Directions*. OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/bb63a00c-en>

1-rasm. Agrar sohada qarorlar qabul qilish muhiti tavsifi¹⁹

ISO 31000:2018 xalqaro standarti — risklarni tizimli, shaffof va mustahkam asosda boshqarishga doir umumiy metodologik yo'riqnomalarni belgilovchi hujjat hisoblanadi²⁰. Ushbu standart quyidagi asosiy jarayonlarni qamrab oladi:

1. Risklarni aniqlash (Identification);
2. Riskni tahlil qilish (Risk Analysis);
3. Riskni baholash (Risk Evaluation);
4. Riskka munosabat bildirish (Risk Treatment);
5. Monitoring va qayta ko'rib chiqish (Review);
6. Aloqa va maslahat (Communication and Consultation).

Mazkur yondashuv nafaqat sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarida, balki agrar sohada ham mavjud noaniqliklar va xavflarni samarali tahlil qilishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan, xalqaro miqyosda e'tirof etilgan universal metodologiyalardan biri sifatida qadrlanadi.

Agrar korxonalarda samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan ilgari surilgan yaxlit (holistik) yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuv risklarni aniqlash, ularni toifalarga ajratish va turli mexanizmlar orqali boshqarish bosqichlarini o'z ichiga oladi²¹.

OECD tomonidan taklif etilgan modelga ko'ra, qishloq xo'jaligi sohasida risklarni boshqarish bo'yicha samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish quyidagi uch bosqichli metodologiya asosida amalga oshiriladi:

1. Risklarning turini tizimli ravishda aniqlash;
2. Har bir risk turiga mos boshqaruv vositalarini tanlash;
3. Ushbu vositalarni institutsional darajada samarali tarzda qo'llash.

Mazkur metodologik yondashuv risklarni minimallashtirish, agrar barqarorlikni ta'minlash va samarali qarorlar qabul qilish jarayonini tizimlashtirishga xizmat qiladi (1-jadval).

1-jadval. OECD xalqaro tashkilotining uch bosqichli risk boshqaruv metodologiyasi:²²

Bosqich	Nomi	Risklarni boshqarish mazmuni
1-bosqich	Risklarni tabaqalashtirish	Risklarni ularning turlari va xos xususiyatlariga ko'ra guruhlariga ajratish. Masalan: xavfsiz risklar, bozor risklari, falokatli (katta) risklar.
2-bosqich	Mos boshqaruv strategiyalarini tanlash	Har bir risk turiga mos ravishda samarali boshqaruv vositalarini tanlash va ularni amaliyotga joriy etish.
3-bosqich	Davlat siyosati va institutsional chora-tadbirlar	Risklarni davlat darajasida siyosiy, sug'urta, zaxira fondlari yoki bozor mexanizmlari orqali tizimli ravishda boshqarishni ta'minlovchi choralarni amalga oshirish.

OECD xalqaro tashkiloti metodologiyasiga ko'ra, agrar sohada risklar uchta asosiy toifaga ajratiladi:

1. Xavfsiz risklar (Normal risks) — tez-tez uchraydigan va juda kam zarar yetkazuvchi holatlar bo'lib, masalan, qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxining odatiy o'zgarishlari. Ushbu risklar fermer yoki tomorqa xo'jaligi tomonidan mahsulotlarni diversifikatsiyalash, agrotexnik tadbirlarni o'tkazish va xarajatlarni optimallashtirish orqali mustaqil ravishda boshqarilishi mumkin.

19 Muallif ishlanmasi.

20 <https://www.iso.org/standard/65694.html>

21 Managing Risk in Agriculture | OECD

22 OECD. (2009). Managing risk in agriculture: A holistic approach. OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/9789264075313-en>



2. Bozor risklari (Marketable risks) — bunday risklar bozor mexanizmlari orqali samarali boshqariladi. Jumladan, fyuchers shartnomalari tuzish, o'z-o'zini sug'urtalash, sug'urta polislarini xarid qilish, logistika va ta'minot zanjirlarini diversifikatsiyalash orqali ularning salbiy ta'siri kamaytiriladi.

3. Falokatli risklar (Catastrophic risks) — suv toshqini, qurg'oqchilik yoki kasalliklarning tarqalishi kabi kam uchraydigan, ammo keng ko'lamli zarar keltiruvchi holatlar bo'lib, ular davlat darajasida boshqariladi. Bunday risklarga qarshi subsidiyalangan sug'urta dasturlari, zaxira fondlarini shakllantirish, moliyaviy vositalar (sug'urta, kredit, kafolatlar), axborot tizimlari, agro-maslahat xizmatlari va profilaktik chora-tadbirlar asosida tizimli yondashuv qo'llaniladi.

Qishloq xo'jaligi korxonalari risklarni boshqarish bo'yicha qarorlarni qabul qilishda ilmiy asoslangan tahlil usullaridan foydalanishlari lozim. OECD xalqaro tashkiloti tavsiyalariga ko'ra, quyidagi yondashuvlar keng qo'llaniladi:

- Mahsulot turlarini diversifikatsiyalash — ishlab chiqarishda mahsulot assortimentini kengaytirish orqali tabiiy, bozor va biologik risklarning salbiy ta'sirini kamaytirish mumkin. Bu yondashuv daromadlarning o'zgaruvchanligini 20–25 foizgacha pasaytirishga yordam beradi.

- Kovariatsiya tahlili — ishlab chiqarish hajmi va bozor narxlar o'rtasida, shuningdek daromad va xarajatlarning o'rtasidagi statistik bog'liqlikni aniqlash orqali risk manbalarini modellashtirish va ular bo'yicha yechimlar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

- Ssenariy tahlili va simulyatsiya — iqlim o'zgarishlari, bozor kon'yunkturasi va siyosiy sharoitlar ta'sirida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan moliyaviy oqibatlarini baholashda qo'llaniladi. Bunda AGLINK-COSIMO kabi global iqtisodiy simulyatsiya modellari asosida natijalar strategik qarorlar qabul qilish jarayoniga integratsiya qilinadi.

- Fermerlar tomonidan boshqariladigan risk tahlili (Farmer-led risk assessment) — OECD tavsiyasiga ko'ra, fermer xo'jaliklari o'z faoliyatlari kontekstida mavjud risklarni davlat idoralariga nisbatan aniqroq anglay oladilar. Shu bois, ularni riskni aniqlash, baholash va boshqarish jarayonlarida mustaqil ishtirokini rag'batlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunda axborot texnologiyalari, maslahat xizmatlari va bozor prognozlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Ushbu metodologiya agrar risklarni farqlash, moslashtirish va muntazam monitoring qilish tamoyillariga asoslanadi. Bu yondashuv resurslardan oqilona foydalanish, risklarni to'g'ri yo'naltirish, shuningdek fermer xo'jaliklari, davlat va bozor subyektlari o'rtasida aniq funksional rol taqsimotini shakllantirish imkonini beradi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida risklarni boshqarishga oid samarali qarorlar qabul qilish uslubiy jihatdan quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- risklarni aniqlash;
- baholash;
- rejalashtirish;
- risk ta'siriga javob choralari belgilash;
- monitoring va tahlil.

Bu bosqichlarning har biri risklar bilan bog'liq noaniqliklarni aniqlash va ularning oqibatlarini minimallashtirishga xizmat qiladi.

Xalqaro tajriba va solishtirma tahlillar asosida aniqlanishicha, AQSh, Niderlandiya va Isroil kabi davlatlarda agrar sohada risklarni boshqarishda raqamli monitoring tizimlari, avtomatlashtirilgan sug'urta mexanizmlari va moliyaviy xedjirlash usullari samarali tarzda qo'llanilmoqda. Masalan, AQShda Qishloq xo'jaligi departamenti (USDA) tizimi orqali fermer xo'jaliklari kompleks risklardan yuqori darajada himoyalangan.

Ko'plab mamlakatlar amaliyotida risklarni boshqarishning eng muhim vositalaridan biri sifatida agrar sug'urta tizimi alohida o'rin egallaydi. Hozirgi kunda O'zbekistonda agrar sug'urta sohasini isloh qilish, raqobatbardosh sug'urta mahsulotlarini joriy etish va ularni innovatsion texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish borasida tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda²³.

Prezident matbuot xizmatining ma'lumotiga ko'ra, 2023-yil qish mavsumida 9 ming gektar bog' va 4 ming gektar tokzor sovuqdan zarar ko'rgan bo'lib, oqibatda 207 ming tonna hosil nobud bo'lgan.

Yangi qonunga ko'ra, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari quyidagi xavflarga qarshi sug'urta shartnomalarini tuzish imkoniyatiga ega bo'ladilar:

- tabiiy va texnogen ofatlar;
- yong'inlar;
- o'simliklarning kasallanishi va zararkunandalar;
- hayvonlarning yuqumli kasalliklari va zaharlanishi;
- yovvoyi hayvonlar tomonidan yetkazilgan zarar;
- uchinchi shaxslarning noqonuniy harakatlari.

23 Ўзбекистонда қишлоқ хўжалиги рискларини суғурталаш мумкин бўлади – Ўзбекистон янгиликлари – Gazeta



Ushbu jarayonni muvofiqlashtiruvchi vakolatli davlat organi sifatida O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi faoliyat yuritadi.

Agrar risklarni boshqarishda sug'urta tizimi nafaqat moliyaviy himoya vositasi, balki barqaror taraqqiyot va ekologik moslashuvchanlikni ta'minlovchi strategik omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Sug'urta siyosatini raqamli texnologiyalar va axborot xizmatlari bilan integratsiya qilish orqali agrar korxonalar o'z vaqtida va asosli qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Agrar risklarni samarali boshqarishda sug'urta tizimi nafaqat iqtisodiy muhofaza vositasi, balki strategik barqarorlikni ta'minlovchi muhim mexanizm hisoblanadi. Sug'urta siyosatini innovatsion texnologiyalar va axborot xizmatlari bilan uyg'unlashtirish orqali qishloq xo'jaligi korxonalari risklar sharoitida mustaqil, tezkor va dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Agrar korxonalarda samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish metodologik jihatdan kompleks yondashuvni talab etadi. Bunday yondashuv risklarni aniqlash, tahlil qilish, baholash, boshqarish strategiyalarini tanlash, ularni amaliyotga tatbiq etish hamda monitoring va nazorat bosqichlarini o'z ichiga oladi.

Avvalo, risklarni identifikatsiya qilish bosqichida agrar korxonaning ichki va tashqi muhitiga ta'sir ko'rsatadigan xavf omillari aniqlanadi. Bunga ishlab chiqarishdagi beqarorlik (masalan, ob-havo sharoitining keskin o'zgarishi, o'simlik va chorva hayvonlari kasallanishi, hosildorlikning pasayishi), bozor sharoitlari (narx tebranishlari, raqobat kuchayishi), moliyaviy omillar (kreditlashda uzilishlar, investitsiya oqimining kamayishi), institutsional holatlar (qonunchilikdagi o'zgarishlar, subsidiyalarning qayta ko'rib chiqilishi) hamda inson omili (kadrlar malakasi, boshqaruvdagi xatolar) kiradi²⁴.

Keyingi bosqichda axborotlarni yig'ish va risklarni tahlil qilish orqali ushbu xavf omillarining yuzaga kelish ehtimoli va ularning keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan zarar darajasi baholanadi. Bu jarayonda sifat jihatidan SWOT va PESTEL tahlillari, miqdoriy yondashuvda esa ehtimollik va oqibat tahlillari hamda Monte-Karlo simulyatsiyasi kabi zamonaviy tahlil vositalaridan foydalaniladi.

Risklarni baholash va tartibga solish bosqichi har bir xavfning korxona strategiyasiga ta'siri va ustuvorlik darajasiga qarab ularni saralashni nazarda tutadi. Ushbu asosda risklarni kamaytirish, oldini olish yoki ularni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqiladi. Bunga ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, sug'urtalash mexanizmlarini joriy etish, himoya fondlarini shakllantirish, ilg'or texnologiyalarni tatbiq qilish va zamonaviy boshqaruv uslublarini amaliyotga joriy etish kiradi²⁵.

Shundan so'ng risklarni boshqarish strategiyalarini tanlash va ularni amalga oshirish jarayoni boshlanadi. Bu bosqichda korxona riskni kamaytirish, uni qabul qilish, o'zgartirish yoki saqlab qolish (risk retention) kabi strategik yondashuvlardan birini tanlaydi. Strategiya tanlashda ko'p mezonli baholash usullari – AHP, SMART, TOPSIS singari metodlardan foydalaniladi. Agar risk hodisasi yuz bersa, korxona oldindan ishlab chiqilgan rejalarga muvofiq javob choralarini ko'radi. Bunda strategiyani qayta ko'rib chiqish, qo'shimcha resurslarni safarbar etish va javobgarlikni qayta taqsimlash zarur bo'ladi.

Qabul qilingan qarorlarni amaliyotga tatbiq etish jarayonida esa loyiha rejalari, byudjetlar, resurslar taqsimoti va ijro uchun mas'ullar belgilanadi. Barcha harakatlar izchil tarzda amalga oshiriladi va natijalar monitoring qilinadi.

Monitoring va nazorat bosqichida esa KPillar, mezonli indikatorlar hamda joriy monitoring tizimlari orqali risklarga nisbatan amalga oshirilgan chora-tadbirlarning samaradorligi baholanadi. Agar lozim topilsa, strategik rejaga tegishli o'zgartirishlar kiritiladi. Bu esa agrar korxonani doimiy ravishda o'zgaruvchan tashqi va ichki sharoitlarga moslashuvchan holatda saqlab turish imkonini beradi.

Iqlim o'zgarishlari sharoitida esa ssenariy tahlili va stress-testlar alohida ahamiyat kasb etadi. Turli iqlim modellariga asoslangan prognoz baholashlar orqali (masalan, hosildorlik, suv ta'minoti va zarar ko'rsatkichlari) kapital sarmoyalarning foydaliligi va sug'urta mahsulotlarining iqtisodiy samaradorligi aniqlanadi.

Shu bois, qishloq xo'jaligi korxonalarida boshqaruv qarorlarini qabul qilishda iqtisodiy risklar nazariyasi, tizimli yondashuv, ehtimolli tahlil, raqamli va innovatsion texnologiyalar, shuningdek ilmiy-statistik modellashtirish asosida qarorlar ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Bunda maxsus risk boshqaruv tuzilmalari, malakali mutaxassislar va zamonaviy modellashtirish vositalarini joriy etish orqali qabul qilinayotgan qarorlarni yanada asosli va puxta qilish mumkin. Bunday metodologik yondashuv, o'z navbatida, agrar subyektlarning iqtisodiy barqarorligi, resurslardan oqilona foydalanish va ekologik moslashuvchanligini ta'minlashga xizmat qiladi.

24 Одиноцова Мария Александровна Методика управления рисками для малого и среднего бизнеса // Экономический журнал. 2014. №3 (35). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/metodika-upravleniya-riskami-dlya-malogo-i-srednego-biznesa> (дата обращения: 09.07.2025).

25 Risk Management - Risk in Agriculture | Economic Research Service



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Aven, T. (2015). Risk Analysis (2nd ed.). Wiley.
2. Boardman, A. E., Greenberg, D. H., Vining, A. R., & Weimer, D. L. (2018). Cost-Benefit Analysis: Concepts and Practice (5th ed.). Cambridge University Press.
3. Checkland, P. (1999). Systems Thinking, Systems Practice. Wiley.
4. FAO. (2020). The State of Food and Agriculture 2020: Overcoming Water Challenges in Agriculture. Food and Agriculture Organization of the United Nations.
5. Freeman, R. E. (1984). Strategic Management: A Stakeholder Approach. Boston: Pitman.
6. Gelman, A., Carlin, J. B., Stern, H. S., Dunson, D. B., Vehtari, A., & Rubin, D. B. (2013). Bayesian Data Analysis (3rd ed.). CRC Press.
7. Holling, C. S. (1978). Adaptive Environmental Assessment and Management. John Wiley & Sons.
8. Knight, F. H. (1921). Risk, Uncertainty and Profit. Boston: Houghton Mifflin.
9. Meadows, D. H. (2008). Thinking in Systems: A Primer. Chelsea Green Publishing.
10. Metropolis, N., & Ulam, S. (1949). The Monte Carlo Method. Journal of the American Statistical Association, 44(247), 335–341.
11. OECD. (2021). Managing Risk in Agriculture: Policy Lessons and Future Directions. OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/bb63a00c-en>
12. Saltelli, A., Ratto, M., Andres, T., Campolongo, F., Cariboni, J., Gatelli, D., ... & Tarantola, S. (2008). Global Sensitivity Analysis: The Primer. Wiley.
13. Schoemaker, P. J. H. (1995). Scenario Planning: A Tool for Strategic Thinking. Sloan Management Review, 36(2), 25–40.
14. Simon, H. A. (1957). Administrative Behavior: A Study of Decision-Making Processes in Administrative Organization. New York: Macmillan.
15. Vose, D. (2008). Risk Analysis: A Quantitative Guide (3rd ed.). John Wiley & Sons.
16. World Bank. (2021). Harvesting Prosperity: Technology and Productivity Growth in Agriculture. The World Bank Group. <https://www.worldbank.org/en/topic/agriculture/publication/harvesting-prosperity>
17. Одинцова, М. А. (2014). Методика управления рисками для малого и среднего бизнеса. Экономический журнал, №3 (35).



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>